

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 1 | SON 1

2025

LINGVOSCIENCES.UZ

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

1-jild 1-son 2025-yil

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: mardonbekoff@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5245-6021>

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
O'zbekiston.

E-mail: bahrom_bek@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1266-1557>

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
O'zbekiston.

E-mail: zsaidboboev@yahoo.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-3960-2427>

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6105-4752>

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
O'zbekiston.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0534-5633>

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor. O'zbekiston.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6146-1789>

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6952-7738>

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9826-175X>

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. O'zbekiston.

E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9867-3363>

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2208-7827>

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: zamira_6@yahoo.de

zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9870-6295>

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

**“Lingvistika va madaniyatshunoslik
fanlarining dolzarb masalalari”**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
1-jild, 1-son (noyabr, 2025). - 38 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li

NORIN-QORADARYO HAVZA BOSHQARMASINING TASHKIL ETILISHI VA UNING ANDIJON
VILOYATI UCHUN AHAMIYATI 06-10

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Xashimova Xurshida Djuraxanovna

O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI 11-15

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna

"ALPOMISH" DOSTONI POETONIMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 16-20

Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna

THE LINGUISTIC AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF FORMULAIC EXPRESSIONS 21-28

Salimova Gulnoza Anvar qizi

GLOBAL IJTIMOYIY JARAYONLAR KONTEKSTIDA NUTQ AKTLARI:
PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV 29-32

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Feruza Nurilloevna, Hazratova Sitara Shavkat qizi

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI BAHOLASHDA TALIS DASTURINING
AHAMIYATI 33-37

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 15 November 2025**Accepted:** 25 November 2025**Published:** 30 November 2025*Article / Original Paper***ORGANIZATION OF THE NARYN-KARADARYA BASIN MANAGEMENT AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE ANDIJAN REGION****Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon ugli**

Andijan State University,

1st year master's student, History major

Abstract. This article discusses the organization of the Naryn-Karadarya irrigation system basin management and its importance for the regional economy based on scientific evidence.

Keywords: irrigation, basin, Cabinet of Ministers, decree, decision, system, land reclamation.

NORIN-QORADARYO HAVZA BOSHQARMASINING TASHKIL ETILISHI VA UNING ANDIJON VILOYATI UCHUN AHAMIYATI**Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li**

Andijon davlat universiteti

Tarix mutaxassisligi, 1-kurs magistranti

E-mail: qodirjonovomadjon15@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasining tashkil etilishi va uning viloyat iqtisodiyoti uchun ahamiyati ilmiy dalillarga asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: irrigatsiya, havza, Vazirlar Mahkamasi, farmon, qaror, tizim, melioratsiya.

Kirish. Butun dunyo miqyosida, xususan eng rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti uchun ham agrar soha doimo strategik ahamiyat kasb etib keladi. Chunki qishloq xo'jaligi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri, balki aholining barqaror oziq-ovqat ta'minoti uchun asosiy manba hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ham agrar sektor alohida o'rin tutadi. Chunki mamlakat aholisi uchun zarur bo'lgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aynan shu soha yetkazib beradi va iqtisodiy barqarorlikka sezilarli hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Bu omillar orasida suv resurslari alohida o'rin tutadi. Chunki suv nafaqat qishloq xo'jaligi uchun, balki sanoat tarmoqlari hamda aholining kundalik ehtiyojlari uchun ham zarur bo'lgan eng muhim tabiiy resursdir. Shu bois O'zbekistonda irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish, suvdan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qishloq xo'jaligi va irrigatsiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni o'rganish natijasida adabiyotlar uch asosiy guruhga ajratildi: ilmiy-nazariy manbalar, huquqiy manbalar va amaliy hamda axborot manbalari.

Birinchi guruhga kiradigan manbalar, masalan, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”[1] va “The World Book Encyclopedia”[2], irrigatsiya tizimlari, suv resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari va global tajribani yoritadi. Ushbu manbalar suv resurslarini boshqarishning fundamental tamoyillari, gidrotexnika inshootlaridan foydalanish va sug'orish tizimlarining samaradorligi haqida tushuncha beradi. Shu orqali tadqiqot suv resurslarini boshqarish tizimining nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy manbalar (Lex.uz) orqali [3][5] O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi va irrigatsiya tizimlarini boshqarish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ushbu hujjatlar Norin-Qoradaryo havza boshqarmasining tashkil etilishi, faoliyatining yuridik asoslari, suvdan foydalanish, kanal va nasos stantsiyalarini boshqarish tartibini belgilaydi. Shuningdek, bu manbalar orqali suv resurslarini taqsimlashning rasmiy mexanizmlari va hisob-kitob tartiblari haqida ma'lumotlar olindi.

Ilmiy va amaliy tadqiqotlar [4][6] Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlarida gidrotexnika inshootlaridan foydalanish, texnik hisobotlar va sug'orish inshootlarini modernizatsiyalash bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu manbalar suv resurslarining oqilona boshqarilishi va kanallarni betonlash, nasos stantsiyalarini modernizatsiya qilish kabi amaliy ishlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, Norin-Qoradaryo havza boshqarmasining 2003-yilgi yakuniy texnik hisoboti [6] hududdagi irrigatsiya tizimlarining texnik holati va amaliy natijalarni yoritadi.

Axborot va ommaviy manbalar [7][10] O'zbekiston Respublikasi hududlarida, xususan Andijon viloyatida kanallarni betonlash ishlari, sug'orish tarmoqlarining yaxshilanishi va amaliy natijalarni yoritadi. Masalan, Mening yurtim telekanali [9] va Andijon viloyat teleradiokompaniyasi [10] tomonidan berilgan lavhalar hududiy amaliy ishlar va loyihalarning real holatini ko'rsatadi. Bu manbalar tadqiqotda amaliy jihatlarni yoritish va hududiy misollar orqali ilmiy natijalarni mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, suv xo'jaligi tizimlarining tashkil etilishi va rivojlanishidagi yirik normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari [3][5][8] tadqiqot obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali Norin-Qoradaryo havza boshqarmasining tashkil etilishi, Suv xo'jaligi vazirligi va uning hududiy tizimlari faoliyatining rasmiy asoslari aniqlanadi.

Shunday qilib, tahlil qilgan adabiyotlar suv xo'jaligi va irrigatsiya sohasidagi ilmiy, huquqiy va amaliy jihatlarni birlashtiradi, shuningdek, Norin-Qoradaryo havza boshqarmasining faoliyati va Andijon viloyatidagi sug'orish tizimlarini modernizatsiyalash bo'yicha real ishlarni baholash imkonini beradi.

Maqolani yozishda qiyosiy tahlil, xronologik izchillik metodlaridan foydalanildi. Maqola tarixiy holislik asosida ilmiy dalillarga asoslangan holda yozildi.

Natijalar. Irrigatsiya – lotin tilida irrigation – sug'orish [1. –B.] degan manoni bildiradi. Ushbu sohaga “yerni sun'iy usullar bilan sug'orish. U uzoq vaqtda, oz yoki umuman yomg'ir yog'maydigan hududlarda, o'suvchi o'simliklarni suv bilan taminlaydi. Irrigatsiyada foydalaniladigan suv ko'l, daryo, ariq va boshqa manbalardan olinadi...” – deb ham ta'rif beriladi [2. –P. 456.]. Biroq bugungi kunda ushbu sohaning vazifasi faqatgina sug'orish bo'libgina qolmay suvni ma'lum bir hududdaan ikkinchisiga samarali tarzda tez va tejamkor uslubda yetkazish hamdir.

Sohaning ahamiyati global miqyosda yuqori bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonning har bir viloyatida turli havza boshqarmalari faol tarzda ish olib bormoqda. Ular orasida Andijon viloyatidagi Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (Norin-Qoradaryo I.T.H.B.) alohida ahamiyatga ega. Ushbu tashkilot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3226-son Farmonini [3] bajarish yuzasidan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-iyuldagi "Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" 320-sonli qaroriga ko'ra tashkil etildi [4. –B. 48.]. Norin-Qoradaryo I.T.H.B. tarkibiga 5 irrigatsiya tizimlar boshqarmasi kirgan [5]. Ular Andijonsoy, Shaxrixonsoy, Ulug'nor-Mazgilsoy, Qoradaryo-Maylisoy, Savay-Oqburasoy irrigatsiya tizimlar boshqarmalari va ulardan tashqari yana viloyat gidrogeologiya melioratsiya ekspeditsiyasi, nasos stansiyalari, energetika va aloqa tarmoqlari boshqarmasi, "Irrigator" o'rmon xo'jaligi, 102-K.M.K. lar kirgan [6. –B. 1.]. Havza boshqarmasining asosiy vazifasi suv resurslaridan unumli foydalanishni ta'minlash, irrigatsion ta'mirlash ishlarini olib borishdan iborat edi.

2017-yil 4-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3172 sonli qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparatida Suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi tuzildi. Bu esa tizimning yanada samarali tarzda faoliyat yuritishini taminladi.

2018-yil 12-fevralda Suv xo'jaligi vazirligi tizimni yanada yaxshilash va irrigatsiya tizimini tubdan yaxshilash maqsadida tashkil etildi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni tejashga qaratilgan chora tadbirlarni bajarishga har doimgidan ham ko'ra ko'proq e'tibor qaratila boshlandi.

2023-yil 29-noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni tejash hamda yo'qotishlarni kamaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi [7]. Yig'ilish yakunida 2024-yil suv xo'jaligi sohasida "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" deb e'lon qilindi va bu sohaga doir e'tiborning qanchalar kuchayib borayotganini ko'rsatdi [8].

2024-yilda mamlakat miqyosida e'lon qilingan "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" dasturi doirasida Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan ham keng ko'lamli infratuzilma loyihalari amalga oshirildi. 41 kilometr magistral kanallarda betonlash ishlari Davlat investitsiya dasturlari doirasida ajratilgan 46 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar hisobidan olib borildi. Ushbu tadbirlar suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish hamda suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, viloyatning agrar sohasida muhim o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Misol tariqasida, Andijon va Jalaquduq tumanlariga xizmat qiluvchi umumiy uzunligi 16,5 kilometr bo'lgan Qatortol kanalida amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin. Kanalning Andijon tumaniga qarashli qismida beton qoplama ishlari bajarilishi natijasida bu hududdagi 120 ta fermer xo'jaligining sug'orish suviga bo'lgan ehtiyoji muntazam va barqaror tarzda qondiriladigan bo'ldi. Shu bilan birga, suv sizib chiqishi va bug'lanish natijasida yuzaga keladigan ortiqcha suv yo'qotishlari sezilarli darajada qisqardi.

2025-yil mazkur ishlarning davomiyligi sifatida Norin-Qoradaryo ITHB tomonidan Qatortol kanalining yana 3,5 kilometr qismini betonlash ishlari rejalashtirilgan bo'lib, bu

jarayon viloyatdagi suv xo'jaligi infratuzilmasining izchil modernizatsiyasi va meliorativ holatini yaxshilash yo'lidagi muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi [9].

2025-yil uchun Andijon viloyatida irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishidagi eng muhim loyihalardan biri — Andijonsoy kanalini betonlashtirish ishlari hisoblanadi. Ushbu loyiha ham Norin-Qoradaryo ITHB xodimlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur kanal viloyat suv xo'jaligi tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, Andijon viloyatining qariyb uchdan bir qismini suv bilan ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, Qo'rg'ontepa, Jalaquduq, Andijon va Oltinko'l tumanlaridagi keng qishloq xo'jaligi maydonlari hamda aholi tomorqalari aynan ushbu kanal orqali sug'orilmoqda. Shu sababli, Andijonsoy kanalining texnik holatini yaxshilash va suv yo'qotilishini kamaytirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Kanalning geologik tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, uning ostki qismi shag'al va yirik tosh qatlamlaridan tashkil topgan. Tabiiy sharoitda bunday qatlamlar suvni tuproqqa oson singdiradi, bu esa suvning sizib chiqish koeffitsientini oshirib, sug'orish samaradorligini pasaytiradi. Shu boisdan, 2025-yilda ushbu kanalning boshlang'ich qismi — Xonobod shahridan o'tuvchi 8 kilometr masofada betonlashtirish ishlari boshlab yuborildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 26-avgust holatiga rejalashtirilgan ishlarning yarmidan ortig'i yakunlangan. Betonlash jarayonida kanalning eni 6 metr, chuqurligi esa 2,10 metr qilib qayta ta'mirlandi. Shu bilan birga, nishablik (gradiyent) darajasi texnik me'yorlarga mos tarzda optimallashtirilib, oqim tezligi va gidravlik barqarorlikni saqlab qolishga erishildi. Natijada, kanalning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati kamaymagan holda, u soniyasiga 50 kub metr hajmdagi suvni uzluksiz o'tkaza olish imkoniyatini saqlab qoldi.

Mazkur loyiha yakunlangach, Andijonsoy kanali orqali sug'oriladigan hududlarda suv ta'minoti sifati sezilarli darajada yaxshilanadi, suv isrofi kamayadi va yerlarning meliorativ holati barqarorlashadi, bu esa viloyat agrar sektorining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi [10].

Xulosa. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (ITHB) o'z faoliyati davomida O'zbekistonning suv resurslarini samarali boshqarish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Boshqarma suv taqsimoti, kanallar va gidrotexnika inshootlarini modernizatsiyalash, nasos stantsiyalari va sug'orish tarmoqlarini samarali boshqarish orqali aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga bevosita hissa qo'shadi.

2003-yildan beri faoliyat yuritayotgan Norin-Qoradaryo ITHB hududiy irrigatsiya tizimlarining texnik holatini yaxshilash, suvdan oqilona foydalanish, shuningdek, kanallarni betonlash va suv inshootlarini zamonaviylashtirish kabi loyihalarni amalga oshirdi. Bu ishlar nafaqat Andijon viloyati, balki butun yurtimiz uchun agrar sohani rivojlantirish va barqaror suv ta'minotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, Norin-Qoradaryo ITHB o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, suv xo'jaligi sohasida milliy va hududiy strategiyalarning samarali ijrosini ta'minlamoqda, bu esa O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ирригация // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002.

2. Irrigation // The World Book Encyclopedia. Volume 10. –United States of America: a Scott Fetzer company, 1994.
3. Lex Uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-170168>
4. Bakiev M., Rahmatov N. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. –Toshkent: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti, 2019.
5. Lex Uz. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-245506>
6. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxivi. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2003-yilgi yakuniy texnik hisoboti. –Andijon, 2004.
7. Gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/11/30/water/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6894>
9. Mening yurtim telekanali. Hudud informatsion dasturi: "Joriy yilda Andijon viloyatida kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar" haqida lavha, —Toshkent, 2024 yil.
10. Andijon viloyat teleradiokompaniyasi. Andijon axborot informatsion dasturi: "Andijonsoy kanalini betonlash ishlari" haqida lavha. —Andijon, 2025 yil 26-avgust.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 15 November 2025**Accepted:** 25 November 2025**Published:** 30 November 2025*Article / Original Paper***STAGES AND DEVELOPMENT DIRECTIONS OF UZBEKISTAN TERMINOLOGY****Khashimova Khurshida Dzhurakhanovna,**

Associate Professor of the Department of Language and Literature Education,

Doctor of Philosophy in Philological Sciences,

University of Business and Science, Namangan, Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the stages of formation and development directions of Uzbek terminology from a historical and linguistic point of view. The social, linguistic and normative aspects of term creation are considered on the example of the Jadid era, the Soviet era and the post-independence period. The study covers the activities of enlighteners such as Fitrat, Cholpon, and Qodiriy, the influence of the Russian language during the Soviet era, and the processes of national standardization of Uzbek terminology after independence on a scientific basis. The article shows the interrelationship of national revival, state policy, and technical progress in the continuous development of terminology, and practical suggestions are given.

Keywords: terminology, Jadid era, Soviet era, independence, standardization, national revival, technical terms, standardization, language policy.

**O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH
YO'NALISHLARI****Xashimova Xurshida Djuraxanovna,**

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Namangan, O'zbekiston

E-mail: xashimovaxurshida1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish yo'nalishlari tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Jadidlar davri, sovet davri va mustaqillikdan keyingi davr misolida termin yaratishning ijtimoiy, lingvistik va me'yoriy jihatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy singari ma'rifatparvarlar faoliyati, sovet davrida rus tilining ta'siri hamda mustaqillikdan so'nggi o'zbek terminologiyasining milliy standartlashtirish jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada terminologiyaning uzluksiz rivojlanishida milliy uyg'onish, davlat siyosati va texnik taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi ko'rsatilib, amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, jadidlar davri, sovet davri, mustaqillik, standartlashtirish, milliy uyg'onish, texnik terminlar, me'yorlashtirish, til siyosati.

Kirish. O'zbek terminologiyasi taraqqiyoti xalqning ilmiy tafakkuri va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. O'zbek texnik terminologiyasi – milliy leksik tizimning muhim qatlami bo'lib, u xalqning ilmiy-texnik tafakkur darajasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va til siyosati bilan chambarchas bog'liq. Har bir davrda texnik taraqqiyot bilan birga yangi tushunchalar paydo bo'lgan, ularni ifodalash uchun mos atamalar yaratilgan yoki boshqa

tillardan o'zlashtirilgan. Shu bois, o'zbek texnik terminologiyasining shakllanishini bosqichma-bosqich o'rganish milliy terminlar evolyutsiyasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiya tilning ilmiy, texnik va madaniy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy qatlamlardan biridir. Shu bois, terminlarning shakllanish jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish o'zbek tili tarixini ham, milliy tafakkur evolyutsiyasini ham yoritishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada o'zbek terminologiyasining tarixiy bosqichlari – jadidlar davri (XX asr boshlarida), sovet davri (1940–1990-yillar) va mustaqillikdan keyingi bosqich (1991–hozirga qadar) ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqsad – o'zbek terminologiyasining shakllanish yo'lini, undagi milliy va xorijiy unsurlar o'rtasidagi nisbatni hamda davlat siyosati ta'sirini aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot tarixiy-lingvistik, qiyosiy va tizimli tahlil metodlariga tayanadi. Tarixiy yondashuv yordamida terminlarning shakllanish bosqichlari manbalar asosida o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali jadid, sovet va mustaqillik davrlaridagi termin yaratish tendensiyalari solishtirildi. Tizimli-lingvistik yondashuv asosida terminlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuv mexanizmlari ko'rib chiqildi. Asosiy nazariy manbalar sifatida A. Fitrat, A. Qodiriy, Cho'lpon, A. Madvaliyev, H. Dadaboyev, R. Daniyarov, D. S. Lotte va A. A. Reformatskiy ishlaridan foydalanildi.

Natijalar. O'zbek terminologiyasining eng qadimiy qatlamini xalq amaliyoti va texnik faoliyati bilan bog'liq so'zlar tashkil etgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik, metallsozlik, me'morchilik, to'qimachilik kabi sohalarida **“charx”, “tosh kesuvchi”, “po'lat”, “qumloq”, “temirchi”** kabi terminlar ishlatilgan.

IX–XII asrlar – Markaziy Osiyoda ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuksak bo'lgan davr. Bu davrda **Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy** singari olimlar astronomiya, matematika, mexanika, geodeziya va kimyo fanlarida asarlar yaratdilar.

Masalan, Beruniy o'zining **“Al-Qonun al-Mas'udiy”** asarida **“mexanik kuch”, “qattqlik markazi”, “og'irlik markazi”, “zaviy”** (burchak) kabi terminlardan foydalangan [1; 224-b.]. Ularning aksariyati arabcha-forscha ildizli bo'lib, o'zbek ilmiy tilining tarixiy shakllanishida asosiy manba bo'lgan.

O'rta asrlar davrida arabcha **“ilmiy terminologiya”** o'zbek tiliga o'rnashdi. Xususan, **“kimyo”, “falakiyot”, “hisob”, “handasa” (geometriya)** kabi terminlar o'sha davrdan boshlab ishlatila boshlagan.

Alisher Navoiy (1441–1501) o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida nafaqat badiiy, balki **ilmiy, falsafiy va ma'naviy-texnik tushunchalar tizimini** ham boyitgan. U o'z asarlarida arabcha-forscha atamalarga o'zbekcha ekvivalentlar topish, ularni xalq tiliga yaqin shaklda ishlatish, ilmiy nutqni milliylashtirishga alohida e'tibor bergan.

Masalan, **“Muhokamat ul-lug'atayn”** asarida Navoiy shunday yozadi:

“Turkiy tilda har bir ilmiy so'zga mos ifoda topmoq mumkin, chunki bu til keng, boy va tabiatdan yiroq emas.” [2; 46-b.] Shuningdek, **“Mahbub ul-qulub”** va **“Lison ut-tayr”** asarlarida u **“ilm”, “aql”, “hikmat”, “tadbirkorlik”, “sanaat”, “hunar”, “mashina”** (mexanik vosita ma'nosida emas, **“harakat mexanizmi”** ma'nosida), **“xat”, “hisob”, “adad”, “mezon”** kabi ilmiy-texnik xarakterdagi terminlarni ishlatadi [2; 73–76-b.].

Jadidlar davri – milliy uyg'onish va terminologik poydevor

1920–1940-yillar: jadidlar va milliy terminotvorlikning ilk harakatlari – milliy uyg'onish va jadid harakatining avj olgan davri. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va ta'limni

zamonaviylashtirish maqsadida turkiy ildizlarga asoslangan neologizmlar yaratish bo'yicha tashabbuslar vujudga keldi.

1. Tilni modernizatsiya qilish: rus va boshqa tillardan ko'chirilgan ilmiy tushunchalarni turkiy ildizlar yordamida ataylab o'zbekchalashtirish harakati.
2. Adabiy va ilmiy matnlar orqali tarqatish: adiblar va ziyolilar yangi atamalarni gazeta-jurnallar, darsliklar va adabiy asarlar orqali jamiyatga singdirishdi.
3. Semantik nashr: yangi so'zlar avvaliga ko'proq umumiy ilmiy matnda, keyinchalik texnik-mexanik sohalarda ishlatilishga kirishdi.

Ushbu davrda yaratilgan terminlar ko'pincha leksik jihatdan milliylashgan, ammo ularning texnik aniqligi cheklangan bo'lgan – bu keyingi standartlashtirish talabini yuzaga keltiradi.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatchilari – Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon va boshqalar o'zbek ilmiy tilini milliy ildizlarga tayangan holda shakllantirishni maqsad qildilar. Fitrat "Til va adabiyot qoidalar" asarida "har bir yangi fan o'z tili bilan kiradi, bizning vazifamiz bu tildagi so'zlarni o'z tilimiz asosida yasashdir" deya ta'kidlagan [3; 12–13b]. Cho'lpon "Adabiyot nadir?" asarida ilmning tili millat uyg'onishining asosi ekanini qayd etadi [4; 27-b]. Bu davr o'zbek terminologiyasi tarixida milliy uyg'onish bosqichi sifatida baholanadi [5; 22–26-b].

1940–1990-yillarda o'zbek terminologiyasi asosan rus tili orqali shakllandi. Ilmiy sohalar rus tilida olib borilgani bois, terminlar to'g'ridan to'g'ri yoki moslashgan shaklda o'zlashdi: generator, reaktor, dvigatel, mexanizm kabi birliklar barqarorlashdi. Madvaliyev bu davrni "o'zbek terminologiyasining me'yorlashuv bosqichi" [5; 44-45-b] deb ataydi. R. Daniyarov bu jarayonni "lingvistik adaptatsiya bosqichi" [6; 61-b] sifatida tahlil qilib, o'zlashgan terminlar o'zbek tili fonetik tizimiga moslashganini, ammo semantik jihatdan rus tiliga bog'liqligini qayd etadi. D. S. Lotte o'zining "Основы построения научно-технической терминологии" (1961) asarida terminologiyani fan tili sifatida shakllantirishda mantiqiy tizimlilik va aniq semantik chegaralash tamoyillarini ilgari surgan. [7; 11-12-b] A. A. Reformatskiy esa "Введение в языкознание" (1961) asarida terminlarni umumtil birliklaridan farqli tarzda bir ma'nolilik, aniqlik va turg'unlik belgilariga ega bo'lgan maxsus qatlam sifatida tavsiflaydi [8; 124-b]. Ushbu nazariy tamoyillar sovet davrida o'zbek terminologiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Mustaqillik davri – milliylashtirish va standartlashtirish

1991-yildan so'ng davlat tili maqomini mustahkamlovchi "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonun (1995) hamda keyingi normativ-huquqiy hujjatlar terminologik siyosatni milliy yo'nalishga burdi. Madvaliyev bu bosqichni o'zbek terminologiyasining "milliy standartlashtirish davri"[5; 300-306-b] deb ataydi. O'zstandart agentligi, Atamalar komissiyasi va tegishli vazirliklar yangi texnik sohalar – raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, robototexnika, bioinformatika kabi tarmoqlarda milliy terminlar yaratish bo'yicha faoliyat yuritmoqda.

**1-jadval. O'zbek terminologiyasining tarixiy bosqichlari
o'rtasida davomiylilik va farqlilik**

Bosqich	Davr (asrlar)	Asosiy manbalar va olimlar	Terminlar manbai	Til ta'siri	Tizimlilik darajasi	Davomiylilik jihatlari	Farqlilik jihatlari
I bosqich. Qadimgi va o'rta asrlar	IX–XVI asrlar	Ahmad al-Farg'oni, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Nasriddin Tusiy	Arabcha va forscha ilmiy terminlar, o'zbek xalq leksikasi	Arabcha-forscha ta'sir kuchli	Yuqori — Beruniy va Navoiyning ilmiy tizimlashtirgan asarlari mavjud	Ilm, hunar, san'at, mehnat, falakiyot, kimyo kabi sohalar uchun terminlar shakllandi; arabcha terminlar o'zlashdi	Terminlar diniy-ilmiy tildan kelib chiqqan; fonetik jihatdan o'zbeklashmagan; milliy shaklga ega emas
II bosqich. Jadidlar davri	XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha	Jadid ma'rifatchilari (Avloniy, Behbudiy, Fitrat)	Ruscha va xalqaro terminlar (mashina, motor, telefon)	Ruscha va Yevropa tillari	Past — atamalar tizimsiz va o'zboshimcha ishlatilgan	Texnika, transport, aloqa bilan bog'liq yangi terminlar paydo bo'ldi	Ruscha yozuv va talaffuz ustuvor bo'ldi; o'zbekcha ekvivalentlar yaratilmagan
III bosqich. Sovet davri	1920–1991	Atamalar komissiyasi, Fanlar akademiyasi, X. Dadaboyev (ilk ishlari), terminologik qo'mitalar	Rus tili orqali xalqaro terminlar (elektronika, dastur, modul)	Ruscha terminlar ustun	O'rta daraja — normativ yondashuv mavjud, lekin rus tiliga tayanilgan	Terminologiya siyosiy asosda tizimlashtirildi; o'zbek tili terminologik faol bo'ldi	Milliy termin yaratish cheklangan; ruscha kalka va variantlar ko'paygan
IV bosqich. Mustaqillik davri	1991–hozirgacha	X. Dadaboyev, R. Doniyorov, A. Madvaliyev, O'zR Atamalar komissiyasi, ISO/IEC tizimlari	Milliy terminlar va xalqaro ekvivalentlar (dastur, ma'lumotlar bazasi, protsessor, qurilma)	O'zbek tili asosiy, xalqaro moslashuv yo'lida	Yuqori — ISO, IEC, TBX asosidagi yondashuv joriy etilmoqda	Milliy terminlar tiklandi, elektron terminologik baza shakllanmoqda	Terminlar o'rtasida sinonimiya, tarjima noaniqligi, va xalqaro moslashuv muammolari mavjud
V bosqich. Raqamli integratsiya davri (shakllanayotgan)	2020–hozirgi davr	O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Tilshunoslik instituti, ISO 30042 (TBX), ISO 16642 (TMF)	Elektron terminlar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar	Xalqaro inglizcha terminlar bilan uyg'unlashuv	Yuqori — avtomatlashtirilgan terminologik tizimlar rivojlanmoqda	TBX va TMF formatlari orqali terminologiya elektron muhitda boshqarilmoqda	Ingliz tilining kuchli ta'siri; milliyalashtirish jarayoni izchillikka muhtoj

Muhokama. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek terminologiyasi taraqqiyoti besh asosiy omil ta'sirida shakllangan: tilning ichki resurslari, ekstralingvistik omillar va davlat siyosati. Jadvaldagi ma'lumotlar ushbu bosqichlar o'rtasidagi davomiylikni hamda farqlilikni aniq ko'rsatadi. Jadidlar davrida milliy uyg'onish, sovet davrida ruscha o'zlashmalar, mustaqillikdan so'ng esa xalqaro integratsiya ustuvorlik qiladi. Terminologiyaning hozirgi bosqichi – global raqamli integratsiya davri bo'lib, xalqaro atamalarni milliy fonetik va morfologik me'yorlarga moslashtirish zarurati mavjud.

Xulosa. O'zbek texnik terminologiyasi o'zining ko'p asrlik tarixiy ildizlariga, milliy leksik imkoniyatlariga va zamonaviy xalqaro me'yorlarga tayangan holda izchil rivojlanib kelmoqda. Tadqiqot davomida terminologiya nazariyasining nazariy, tarixiy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilindi. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot yo'li besh bosqichda kechgan: qadimgi va o'rta asrlar, jadidlar davrida milliy uyg'onish asosida termin yaratish, sovet davrida ruscha o'zlashmalar orqali tizim barqarorlashuvi, mustaqillikdan so'ng milliy standartlashtirish va xalqaro uyg'unlashtirish. Yangi terminlar yaratishda mahalliy resurslardan foydalanish, atamalarni ekspertizadan o'tkazish va zamonaviy texnik sohalar uchun izohli lug'atlar yaratish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Беруний, А. Р. (1030/1981). *Ал-Конун ал-Масъудий*. Тошкент: Фан нашриёти.
2. Навоий, А. (1499/1983). *Мухокамат ул-луғатайн*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт.
3. Фитрат А. (1926) *Til va adabiyot qoidalari*. – Samarqand: O'zdavnashr.
4. Чўлпон А. (1929) *Adabiyot nadir?* – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti.
5. Мадвалиев А. (2017) *O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Данияров Р. (1988) *O'zbek texnik terminologiyasi va uning tizimiy xususiyatlari*. – Toshkent: dissertatsiya.
7. Лотте Д. С. (1961) *Основы построения научно-технической терминологии*. – М.: АН СССР.
8. Реформатский А. А. *Введение в языкознание*. – М.: АН СССР, 1961. – С. 124.
9. O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-800, 03.11.2022). – <https://www.lex.uz/docs/-6270526>
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:u5HHmVD_u08C
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAA&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:hqQjcs7Dif8C

Received: 15 November 2025

Accepted: 25 November 2025

Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE POETONYMS IN THE EPIC “ALPOMISH”

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna

University of Business Science

Dotsent of the department of language and
literature education, PhD

Abstract. The article reveals the linguocultural aspects related to how onomastic units in the epic “Alpomish” – such as anthroponyms, mythonyms, and mythozoonyms – express the sociolinguistic, national, cultural, and religious traditions of the people and their oral poetic creativity. Furthermore, the ethnolinguistic aspects of the naming of poetonyms, connected to the ancient traditions of the Uzbek people’s clans and tribes, are explored, and the linguo-cultural features of the poetonyms Alpomish, Barchin and Boychibor are illuminated.

Keywords: poetic function, poetic names, poetonym, poetic anthroponym, allusive text, allusive marker, poetic zoonym.

“ALPOMISH” DOSTONI POETONIMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

University of Business Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti

E-mail: barchinoyyunusova21@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-7373-9450>

Annotatsiya. Maqolada “Alpomish” dostonidagi antroponim, mifonim, mifozoonim kabi onomastik birliklarning xalq va uning og'zaki poetik ijodi takomilidagi sotsiolingvistik, milliy, madaniy, diniy an'analarni ifodalash bilan bog'liq lingvokulturologik hamda poetonimlar nomlanishining o'zbek xalqining qadimiy urug'-qabilalari an'alariga aloqador etnolingvistik jihatlarini ochib berilgan hamda Alpomish, Barchin, Boychibor poetonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: poetik vazifa, poetik nomlar, poetonim, poetik antroponim, allyuziv matn, allyuziv ko'rsatkich, poetik zoonim.

Kirish. Antroposentrik paradigma ustuvorligi ortgan bugungi kunga kelib qadimiy va tarixiy folklor asarlarining lingvistik jihatlariga, jumladan, ularda qo'llangan atoqli otlarni o'rganishga sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik, antroposentrik, lingvokulturologik aspektda yondashuv borgan sari ortmoqda.

Dunyo tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining til xususiyatlarini o'rganuvchi lingvofolkloristika sohasi rivojlangan va takomilga erishgan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Endilikda xalqning tarixi, etnik takomili, madaniyati va san'ati hamda badiiy ijodining sara namunalarini, xususan, ulardagi onomastik birliklarni yangi lingvistik paradigmalar asosida tarixiy va zamonaviy aspektlarda tadqiq etish kun tartibiga qo'yildi. Atoqli otlar xalqning

Speech culture is intrinsically linked to oratory. Since antiquity, mankind has consistently endeavoured to articulate its ideas to audiences through eloquent and resonant language. Over time, language evolved into an art form, with oratory serving as a striking expression of this art. During interpersonal conversation, the primary social roles of language are highlighted. In communication, the speaker or writer employs existing linguistic resources to achieve a particular communicative objective—specifically, to convey or acquire information regarding certain events and phenomena, to articulate opinions or attitudes, and thereby to affect the thoughts and emotions of the listener or reader. This objective distinctly delineates the essence of spoken communication. Individuals who adeptly choose and employ the linguistic elements requisite for a certain communicative context, elevating their application to an artistic level, have consistently been esteemed as orators. Consequently, from a philosophical perspective, oratory and speech culture—indicative of an individual's linguistic proficiency—are ideas that necessitate, complement, and are intricately linked to one another (Jo'raev & Halimov 2021:17)

Conclusion. The language encapsulates cultural uniqueness, as “different languages, in their essence and influence on cognition and emotion, represent distinct worldviews” (Humboldt 1985: 370); “the peculiarities of language impact the essence of a nation, thus a comprehensive examination of language must encompass all that history and philosophy link to the human inner world” (Humboldt 1985: 377). In other words, variations exist in cognitive processes and perceptions of reality; language encapsulates the distinctiveness of a particular culture. W. Humboldt stated: “Language is intertwined with the folk spirit through the most delicate fibres of its roots”; “Language is among the factors that invigorate the universal spiritual force to perpetual activity”; “Language and spiritual forces operate in tandem and collectively form the indivisible function of the mind” (Berezin 1984: 44-45).

In summary, greeting expressions and behaviours reflect factors such as nationality, religion, age, relationship, venue, and gender. This paragraph has demonstrated theoretical and practical methods to formulaic statements, illustrated with instances of greetings. Greeting constitutes a crucial aspect of communication, inherently including the linguocultural paradigm and cultural competency. Greetings reflect an individual's perception of the interlocutor and indicate social presence. In Russian culture, there is a hilarious adage: “какой Привет - такой Ответ,” which signifies that the manner in which a speaker greets an interlocutor determines the nature of the interlocutor's response. In Uzbek culture, regardless of a person's age, status,

gender, colour, or religion, interlocutors are required to greet one another with the word “Assalomu aleykum” including children.

The maintenance of cultural identity and the formation of social contact are both significantly influenced by the use of formulaic language, particularly formal welcomes. They are comprehensive representations of the worldview, ethical standards, and communication ideals that are held by a language group. As it pertains to intercultural communication, linguocultural studies, and language instruction, having a solid understanding of these ethnospecific characteristics is absolutely necessary. Despite the fact that greeting rituals serve the same universal communication aims, this study indicates that the pragmatic functions, semantic richness, and socio-cultural implications of greeting rituals are notably different across the Russian, English, and Uzbek cultures. A corpus-based frequency analysis, cognitive modelling of formulaic phrases, or experimental work on pragmatic understanding might be among the topics that will be investigated in the potential future.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics.(2019), Tashkent, 208 p.
2. Humboldt W. von. (1999). On Language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of Human Species. P.296 . Cambridge: Cambridge University Press.
3. Jo'raev, T. T., & Halimov, S. G. (2021). Nutq madaniyati: O'quv qo'llanma (Approved by the Scientific Council of Samarkand State Medical Institute, Protocol No. 9, June 24, 2020). Samarkand State Medical Institute. P.111.
4. Klimova, I. I., & Kozlovtsseva, N. A. (2023). Language as an instrument of social control and people management. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 14(2), 402–417. <https://doi.org/10.22363/2313-2299-2023-14-2-402-417>
<https://journals.rudn.ru/semiotics-semantics>
5. Yunusova, M. Sh. “The Relationship of Language and Culture — as the Main Object of Linguoculturology” // *European Journal of Innovation in Nonformal Education*. — 2024. — Vol. 4, no. 9. — Pp. 103–107. — P. 103.
6. Березин, Ф. М. (1984). История лингвистических учении (2-е изд., испр. и доп.). Москва: Высшая школа. Стр. 319 <https://linguistics-online.narod.ru/berezin.pdf>
7. Е.А. Осипова, А.В. Полонский. – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2024. Публицистика Д.С. Лихачёва в контексте общественной мысли современной России: моногр. / – 128 с. https://www.researchgate.net/publication/381885718_Publicistika_DS_Lihaceva_v_kontekste_obsestvennoj_mysli_sovremennoj_Rossii
8. Леонтьев А.Н. (1969). Язык, речь, речевая деятельность. М.: Просвещение.
9. Лихачев Д.С. (1989). Заметки и наблюдения // Из записных книжек разных лет. Л.: Советский писатель. С. 410–436.
10. Лихачев Д.С. (1993). Концептосфера русского языка // Известия Академии наук. Серия литера-туры и языка. Т. 52. No 1. С. 3–9.25.
11. Рыжова, С. В. (2009). Культурологический аспект филологии Д. Лихачева. Вестник Челябинского государственного университета, (11), 143-147.
12. Тихонова Ангелина Валерьевна, & Чибисова Ольга Владимировна (2018). Лингвокультурологические особенности “благопожелания” и “祝愿”: сопоставительный аспект. *Лингвокультурология*, (12), 216-229.
13. Чаушев А. С. (2008). Коммуникативно-прагматические особенности речевого этикета в различных лингвокультурах (на материале карачаево-балкарского, русского и английского языков) : автореф. дис. ... канд. филол. наук. Волгоград. 21 с.

Received: 15 November 2025
Accepted: 25 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

GLOBAL SOCIAL PROCESSES IN THE CONTEXT OF SPEECH ACTS: A PRAGMALINGUISTIC APPROACH

Salimova Gulnoza Anvar qizi

Methodologist, Department for Work with Youth,
Spirituality and Enlightenment
Bukhara State Medical Institute
E-mail: gulnozanvarovnasag@gmail.com

Abstract. This article analyzes, on a pragmalinguistic basis, the interrelation between speech acts and social processes in the era of globalization. It reveals the role of strategic illocutionary means used in international political speeches, media communication, and internet discourse in shaping social consciousness. The study shows that in contemporary global processes, speech acts serve not only as a tool for delivering information but also as a mechanism for directing audiences to action and influencing their perceptions.

Keywords: pragmalinguistics, speech act, illocution, persuasion, global communication, discourse.

GLOBAL IJTIMOYIY JARAYONLAR KONTEKSTIDA NUTQ AKTLARI: PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV

Salimova Gulnoza Anvar qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubshunosi

Annotatsiya. Ushbu maqola globallashuv davrida nutq aktlarining ijtimoiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini pragmalingvistik asosda tahlil qiladi. Xalqaro siyosiy nutqlar, media kommunikatsiyasi va internet diskursida qo'llaniladigan strategik illokutsion vositalarning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nutq aktlari zamonaviy global jarayonlarda faqat axborot yetkazish emas, balki auditoriyani harakatga yo'naltirish va qarashlarini boshqarish funksiyasini bajaradi.

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, nutq akti, illokutsiya, persuaziya, global kommunikatsiya, diskurs.

Global kommunikatsiya tizimining kengayishi insonlar o'rtasidagi muloqot shakllariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda nutq jarayoni faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, jamiyatni safarbar qilish va ma'lum ijtimoiy harakatlarni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun nutqning ta'sirchan funksiyasini aniqlashda uning pragmatik strukturasi markaziy o'ringa ega.

Nutq aktlari nazariyasi tilning amaliy qo'llanishini harakat sifatida talqin qiladi. J. Ostin nutqni "harakat bajaruvchi hodisa" sifatida izohlagan bo'lib, nutq aktini **lokutsion**, **illokutsion** va **perlokutsion** tarkiblarga ajratadi[1]. Illokutsion komponent esa so'zlovchining kommunikativ maqsadini va auditoriyaga qaratilgan ta'sir strategiyasini ifodalaydi. J. Syurl ushbu nazariyani rivojlantirib, nutq aktlarining jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatga bog'liqligini, ya'ni tilning kontekstga mos ravishda ma'no hosil qilish xususiyatini ta'kidlaydi[2].

Shu sababli nutq aktlarini global jarayonlar kontekstida tahlil qilish hozirgi lingvistika, siyosiy kommunikatsiya va ijtimoiy psixologiya fanlarining kesishgan dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi — nutq aktlarining ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini pragmalingvistik yondashuv asosida ochib berishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini pragmalingvistik yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot doirasida nutq jarayonining mazmuniy emas, balki **kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan** xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Shuning uchun avvalo nutqning harakat sifatidagi tabiati haqidagi nazariy qarashlar asos qilib olindi. Xususan, nutqning ijtimoiy vaziyatga bog'langan maqsadli me'yorlarda qo'llanishi tilni tushunishning markaziy nuqtasi ekanligi ta'kidlanadi[3].

Tadqiqot materiali sifatida global kommunikatsiya maydoniga kiradigan nutq shakllari — siyosiy chiqishlar, xalqaro rasmiy bayonotlar, ommaviy axborot diskursi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlar tanlandi. Ushbu matnlar nutq aktlarining **ta'sirchan, yo'naltirilgan** va **baholovchi** funksiyalarini ochib berish uchun yetarlicha mazmuniy xilma-xillikka ega.

Analiz jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlarda amalga oshirildi:

1. **Kontekstual-semantik tahlil:** matnning yuzaki mazmuni emas, balki undagi yashirin kommunikativ niyatlar aniqlanadi.
2. **Diskurs tahlili:** nutqning jamiyatdagi ijtimoiy vazifasi va ongga ta'sir qilish mexanizmlari baholanadi.
3. **Illokutsion strategiyalarni aniqlash:** so'zlovchi tomonidan qo'llanilgan ta'sir vositalari — talab, da'vat, ishontirish, ogohlantirish, rad etish kabi maqsadlar tahlil qilinadi[4].
4. **Taqqoslama tahlil:** turli vaziyatlardagi nutq aktlarining ta'sir kuchi solishtiriladi.

Mazkur tadqiqotda sifat tahlili usuli ustuvor bo'lib, natijalar **mavhum umumlashtirish** emas, balki **aniq induktiv kuzatishlar** asosida shakllantirildi.

Natijalar va tahlil. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, global kommunikatsiya makonida nutq aktlari faqat axborot yetkazish emas, balki **ijtimoiy ongni boshqarish**ning faol mexanizmi sifatida ishlaydi. Bu jarayon ayniqsa siyosiy nutqlarda, xalqaro platformalarda e'lon qilinadigan bayonotlarda va ommaviy media diskursida yaqqol ko'rinadi. Nutqning ta'sirchanlik kuchi uning **illokutsion maqsadining** aniq tashkil etilishiga bog'liq.

1. *Siyosiy nutqlarda safarbar qiluvchi illokutsiyalar:* **siyosiy yetakchilarning murojaatlarida da'vat, birlashtirish, ixtilofni yumshatish kabi illokutsion strategiyalar ustuvorlik qiladi.** Misol uchun, global inqirozlar (pandemiya, energiya tanqisligi va boshqalar) yuzasidan rasmiy nutqlarda "birgalikda yengamiz", "mas'uliyat bizning qo'limizda" kabi konstruksiyalar qo'llanilishi auditoriyani faol ijtimoiy pozitsiyaga yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunda nutqning asosiy vazifasi emotsional birdamlikni shakllantirish bo'ladi.

2. *Media diskursida ta'sir kuchini kuchaytiruvchi baholovchi birliklar:* OAV matnlarida baholovchi leksika yordamida voqelik biryozlama talqin qilinishi kuzatiladi. **Bunda voqea "xavfli", "keskin", "barqarorlikka tahdid" kabi semantik yuklamalar bilan tavsiflanadi.** Bu strategiya axborot qabul qiluvchining hissiy fonini boshqarishga imkon beradi[5]. Shunday qilib, media diskursi ko'pincha real voqelikning lingvistik modelini yaratadi, voqelikning o'zi emas. OAV (media) sarlavha misoli: Sarlavha: "Narxlar keskin oshdi: fuqarolar xavotirda". → *keskin, xavotirda* kabi **baholovchi birliklar** o'quvchining hissiy fonini boshqaradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda tezkor perlokutsion ta'sir: internet muloqotida nutqning perlokutsion komponenti — ya'ni reaksiya chaqirish mexanizmi kuchli. **“Trend” bo'luvchi fikrlar, ijtimoiy aksiyalar chaqiruvi, bo'hton va provokatsion bayonotlar** qisqa vaqt ichida katta auditoriya xulqini o'zgartira oladi. *Bu jarayon tarmoq kommunikatsiyasining tezkorligi va tarqalish ko'lamidan kelib chiqadi.* Ijtimoiy tarmoq (Telegram/Twitter) misoli: **Post: “#Adolat uchun ovoz ber!” Xeshteg** perlokutsion ta'sir **orqali** bevosita harakatga chaqiradi.

Bu yerda nutq akti faqat so'z emas, balki ijtimoiy harakatni boshlovchi signal sifatida ishlaydi.

4. Global nutq makonida kontekst hal qiluvchi omil: bir xil nutq akti turli madaniy va ijtimoiy kontekstdagi auditoriyalarda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nutqning mazmuni emas, qaysi vaziyatda, kim tomonidan, kimga nisbatan aytilgani muhim hisoblanadi. Bu esa pragmalingsvistik yondashuvning markazida kontekst tushunchasi turganini tasdiqlaydi. Bundan kelib chiqadiki, nutq aktlari global kommunikatsiyada ijtimoiy ta'sir vositasiga aylangan. Siyosiy, media va internet diskurslari turli illokutsion strategiyalar orqali auditoriya xulqini boshqaradi. Ta'sir kuchi kontekstga, muloqot subyektining mavqeiga va qabul qiluvchining kognitiv holatiga bog'liq.

Natijalar o'zbek lingvopragmatika tadqiqotlari bilan uyg'un ravishda shuni ko'rsatadiki, nutq aktlari kommunikatsiyada ijtimoiy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. N. Mahmudov nutqning shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi ijtimoiy harakat ekanligini ta'kidlaydi[6], bu siyosiy nutqlarda birdamlikni shakllantirish strategiyalarida yaqqol ko'rinadi. A. Nurmonov esa nutqning ta'sir kuchi kontekstga bog'liqligini qayd etadi[7], bu OAVda baholovchi sarlavhalar orqali auditoriya ongiga yo'naltirilgan ta'sirda ifodalanadi. Z. Abdurahmonova media nutqida yashirin baholash auditoriyani tezkor hissiy reaksiya va harakatga chorlaydi, deb ta'kidlaydi[8]; bu ijtimoiy tarmoqlarda xeshteglar orqali safarbarlik qilish hodisasida tasdiqlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq aktlari global kommunikatsiya jarayonlarida faqat til birliklarining mazmuniy ifodasi emas, balki **ijtimoiy ong va xulq-atvorni boshqarishga qaratilgan maqsadli ta'sir mexanizmi** sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy nutqlarda safarbar qiluvchi illokutsion strategiyalar ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va auditoriyani faol pozitsiyaga yo'naltirishda xizmat qiladi. Media diskursida esa voqelik baholovchi birliklar orqali shakllantiriladi va shu tariqa voqelik modeli yaratiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda perlokutsion ta'sirning yuqoriligi nutqning tezkor harakat chaqirish quvvati bilan bog'liq.

Tahlil shuni tasdiqladiki, nutq aktlarining samaradorligi **kontekstga, kommunikatorning ijtimoiy mavqeiga, auditoriyaning kognitiv tayyorgarligiga va kommunikatsiya kanalining xarakteriga** bog'liq. Shu sababli nutqni lingvistik tuzilma sifatida emas, balki ijtimoiy amaliyot sifatida o'rganish dolzarb hisoblanadi[9]. Pragmalingsvistik yondashuv nutqning yashirin maqsadlarini, ta'sir strategiyalarini va muloqot jarayonining boshqaruvchan tabiatini ochib berishga imkon beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press, 1962.
2. Searle, J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press, 1969.
3. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press, 1962.

4. Searle, J. R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge University Press, 1979.
5. Wodak, R. The Politics of Fear. Sage, 2015.
6. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati masalalari. Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Nurmonov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2008.
8. Abdurahmonova Z. Media lingvistikasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
9. Fairclough, N. Language and Power. Longman, 1989.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE**Received:** 15 November 2025**Accepted:** 25 November 2025**Published:** 30 November 2025*Article / Original Paper***THE IMPORTANCE OF THE TALIS PROGRAM IN EVALUATING TEACHER PERFORMANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS****Feruza Nurilloleyevna Abdullayeva**Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Professor, Asia International University**Sitora Shavkat kizi Hazratova**

Master's, Asia International University

Abstract. This study examines the role of teachers in the educational process, the key factors influencing their professional performance, and the significance of the TALIS international survey in evaluating pedagogical practices. The findings show that teacher effectiveness is shaped not only by instructional methods but also by deeper internal processes such as professional support, collaborative culture, leadership style, and digital competence. The study also reveals that teachers who actively participate in professional networks demonstrate higher lesson quality, adaptability, and motivation. TALIS provides a reliable international framework for identifying strengths and weaknesses within the educational process and for evaluating teacher performance systematically.

Keywords: educational process, TALIS, teacher performance, professional development, collaborative culture, digital competence, teaching quality.

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI BAHOLASHDA TALIS DASTURINING AHAMIYATI**Abdullayeva Feruza Nurilloleyevna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Osiyo xalqaro Universiteti professori

Email: feruzaabdullayeva185@gmail.comwww.orcid.org/0009-0001-2629-9077**Hazratova Sitora Shavkat qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Email: sitorahazratova174@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning kasbiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va TALIS xalqaro dasturining pedagogik jarayonni baholashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari o'qituvchi samaradorligi nafaqat metodik yondashuv bilan, balki kasbiy qo'llab-quvvatlash, hamkorlik muhiti, rahbarlik yondashuvi va raqamli kompetensiyalar kabi chuqur ichki jarayonlar bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, professional tarmoqlarda faol ishtirok etayotgan o'qituvchilarda dars sifati, pedagogik moslashuvchanlik va motivatsiya sezilarli darajada yuqori ekanini aniqlandi. TALIS dasturi ta'lim jarayonining kuchli va zaif jihatlarini aniqlashga imkon berib, o'qituvchini tizimli baholash uchun ishonchli xalqaro mezon vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, TALIS, o'qituvchi faoliyati, kasbiy rivojlanish, hamkorlik muhiti, raqamli kompetensiya, pedagogik sifat.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining professional kompetentligi nafafaqat dars jarayonining samaradorligini, balki butun ta'lim tizimining taraqqiyot sur'atini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyodagi eng yirik xalqaro baholashlardan biri bo'lgan TALIS tadqiqoti o'qituvchilarning malaka darajasi, metodik yondashuvlari, pedagogik madaniyati va kasbiy muhit sifati haqida chuqur ilmiy ma'lumot berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan qay darajada foydalanishi, sinfda muloqot jarayonini qanday tashkil etishi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlari qay darajada ta'minlanayotganini aniqlashga imkon yaratadi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ham o'qituvchilar malakasini uzluksiz rivojlantirish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Xususan, Prezidentning 2023-yil 27-martdagi "Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-105-son qarori o'qituvchilarning metodik madaniyatini yuksaltirish, xalqaro baholash natijalari asosida ularga zarur ko'nikmalarni shakllantirish va ta'lim sifatini barqaror oshirish uchun mustahkam normativ asos yaratdi [1; B.4-5.]. Ushbu qarorda o'qituvchilarning raqamli savodxonligi, dars jarayonida AKTdan foydalanish malakasi, innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgani bilan u TALIS tadqiqotida ta'kidlangan kompetensiya talablariga hamohangdir.

Bugungi kunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga, muloqotga va hamkorlikka yo'naltiruvchi murabbiy sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois pedagogik kompetensiya endi metodik mahorat bilan cheklanmay, kommunikativ, raqamli, refleksiv, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni o'z ichiga olmoqda. TALIS natijalari turli davlatlarda o'qituvchilarning kasbiy madaniyati qanday shakllanayotgani, ta'lim siyosati ularga qanday ta'sir ko'rsatayotgani va o'qituvchilar o'rtasidagi farqlar nimaga bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatadi. Shu jihatlardan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada TALIS tadqiqoti natijalari asosida o'qituvchilarning professional kompetentligini baholash mexanizmlari, ularga ta'sir etuvchi omillar, milliy ta'lim siyosatida qo'yilgan ustuvor vazifalar va xalqaro tajribadan kelib chiqadigan metodik xulosalar ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. TALIS xalqaro baholash dasturi o'qituvchilar faoliyatini o'rganishga qaratilgan eng katta platformalardan biri bo'lib, u ta'lim sifatini biror mamlakatning o'z ichki mezonlari bilan emas, balki dunyodagi umumiy standartlar orqali baholash imkonini beradi. So'nggi yillarda TALIS bo'yicha chop etilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy rivoji, dars jarayonidagi sifat va maktabdagi pedagogik muhit bularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'langan jarayonlar ekan.

X. Qarshiboyeva olib borgan tadqiqot ishida aynan shular haqida fikr yuritiladi. U TALISni o'qituvchini "kimdir baholayotgan tizim" emas, balki o'qituvchining real faoliyatini, uning darsdagi yondashuvini va o'quvchiga bo'lgan munosabatini aniqlab beradigan kuchli diagnostika vositasi sifatida talqin qiladi [2; B.122-124.]. Muallifning asosiy xulosasi TALIS natijalari O'zbekiston ta'limi uchun yo'naltiruvchi kompas vazifasini bajarishi mumkin.

Xuddi shu yo'nalishda tadqiqotchi A.Sh.Husenovanning tadqiqot ishida xalqaro baholash dasturlari qiyoslanadi. U PISA, PIRLS yoki TIMSS kabi baholashlar o'quvchi natijalariga e'tibor qaratishini, TALIS esa o'qituvchining o'ziga xos portretini yaratishini ta'kidlaydi [3; B.28-31.]. Uning fikricha, o'qituvchining metodik tayyorgarligi, darsga munosabati, AKTdan foydalanish malakasi, bularning barchasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi va ularsiz o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

TALIS bo'yicha eng yirik manbalardan biri J.Veletic, R.V.Olsen va A.M.Rodriguezning tizimli sharhi. Ular o'n yildan oshiq davr mobaynida chop etilgan o'nlab ilmiy ishlarga tayanib, o'qituvchi faoliyatiga ta'sir qiladigan to'rtta asosiy yo'nalishni ajratib berishgan ya'ni, o'qituvchining kasbiy motivatsiyasi, maktab liderligi sifati, psixologik muhit va raqamli kompetensiya [4; B.26-28]. Ularning fikricha, TALISning eng katta yutug'i u o'qituvchini faqat dars beruvchi shaxs emas, balki ta'limda murakkab ijtimoiy tizimning faol ishtirokchisi sifatida ko'rishi.

Shuningdek, D.R.Husanovning tadqiqot ishida TALISning texnik jihatlari, tanlanma tuzilishi, statistik standartlarini va xalqaro validatsiya jarayonini batafsil o'rganilgan[5; B.97-102.]. Husanovning fikricha, TALIS natijalarining ishonchliligi aynan shu qat'iy metodologiya sababli yuqori bo'lib, bu natijalar asosida qabul qilingan har bir siyosiy qaror real holatga mos keladi.

Shu bilan birga, Michael Ralphning 2025-yildagi tadqiqoti boshqa adabiyotlardan farqli o'laroq, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ta'siriga e'tibor qaratadi. U TALIS 2018 ma'lumotlaridan foydalanib, professional tarmoqlarga qo'shilgan o'qituvchilarda dars sifati, metodik yangiliklarni qo'llash, hatto ishga bo'lgan mehr va mas'uliyat sezilarli yuqori bo'lishini aniqlagan [6; B. 8-11.]. Bundan tashqari, Ralph biznes sektori bilan hamkorlik qilgan maktablarda o'qituvchilarning motivatsiyasi ham oshishini ta'kidlaydi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, ta'lim faqat darslik bilan cheklanib qolmaydi maktab atrofidagi hamjamiyat qanchalik faol bo'lsa, o'qituvchilar ham shunchalik kuchli qo'llab-quvvatlanadi.

Yuqoridagi barcha adabiyotlar bir nuqtada birlashadi ya'ni, TALIS o'qituvchini tushunishning eng ishonchli xalqaro oynasi. U o'qituvchining darsi qanday o'tayotgani, qanday muammolarga duch kelayotgani, qanday imkoniyatlarga ega ekani, maktab rahbariyati uni qanday qo'llab-quvvatlayotgani va uning qanday professional ehtiyojlari borligini ob'ektiv ko'rsatib beradi. Shuning uchun TALIS bugungi ta'lim islohotlarida oddiy statistika emas, balki strategiya belgilab beruvchi ilmiy yo'l xaritasiga aylanib bormoqda.

Muhokama. Bugungi ta'lim jarayoniga diqqat bilan qaraganda, o'qituvchining kundalik faoliyati ko'pincha ko'zga ko'rinmaydigan, ammo butun tizimning sifatini belgilab beruvchi chuqur omillarga tayanishini ko'ramiz. Darslik, reja yoki nazorat ishlari o'qituvchi ko'radigan vazifalarning tashqi qismi xolos. Asl ta'lim jarayoni esa o'qituvchining o'zini qanday his qilishi, uning kasbiy qadriyatlari qanchalik qo'llab-quvvatlanayotgani va ta'lim tizimi ichida qanday munosabat shakllangani orqali namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining darsdagi samaradorligi avvalo uning ta'lim jarayonida yolg'iz emasligiga, tajribasi va fikrlari e'tiborga olinayotganiga, kasbiy muloqotning mavjudligiga bog'liq. Agar o'qituvchi ortiqcha yuklamalar, ruhiy bosim yoki yetarli ko'makning yo'qligi bilan yuzma-yuz kelsa, eng yaxshi metod ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Biroq ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlovchi, hamkorlikka tayyor muhit shakllangan bo'lsa, o'qituvchi o'zining haqiqiy salohiyatini ko'rsatadi.

Shu jihatdan TALIS natijalari ta'lim jarayoni qayerda kuchli, qayerda zaif ekanini ko'rsatadigan aniq manzara yaratadi. U o'qituvchining dars berish uslubini emas, balki bu uslubga ta'sir qilayotgan ichki mexanizmlarni kasbiy o'sish imkoniyatlari, hamkorlik muhiti, raqamli kompetensiya va motivatsion omillarni chuqur o'rganadi. Bu esa o'zgarish talab qilinayotgan yo'nalishlarni aniq ko'rish va sifatni oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilashga yordam beradi.

Natijalar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida o'qituvchining samaradorligi ko'pincha uning ishlayotgan muhitiga bog'liq bo'ladi. Turli manbalarda qayd etilishicha, o'qituvchi o'zini qadrlangan deb his qilgan ta'lim jamoalarida dars samaradorligi o'rtacha 20-25% oshadi, chunki bunday sharoitda pedagog o'z fikrini erkin bildiradi, tashabbus ko'rsatadi va yangi metodlarni sinashdan qo'rqmaydi. Shuningdek, kasbiy hamkorlik mavjud bo'lgan guruhlarda o'qituvchilarning yangilikka ochiqqligi 30% ga yuqori bo'lishi ta'lim jarayonining sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zaro tajriba almashish, dars tahlili, umumiy muammolarga yechim izlash o'qituvchining ruhiy tayanchini kuchaytiradi va u darsga nafaqat majburiyat, balki qiziqish bilan kiradi. Aksincha, qo'llab-quvvatlash sust bo'lgan ta'lim muhitida pedagoglarning motivatsiyasi keskin pasayib, dars jarayonida ijodiy yondashuv 40% gacha kamayishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, tahlillarda raqamli savodxonlikning ta'lim jarayoniga ta'siri ham yaqqol ko'rindi. AKT vositalaridan muntazam foydalangan o'qituvchilarda o'quvchilar faolligi 15-20% oshishi, darsni o'zlashtirish sur'ati esa an'anaviy darslarga nisbatan 2-2,5 baravar yuqori bo'lishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Ta'lim jarayonini boshqaruvchi rahbarlarning roli ham muhim natija sifatida ajralib turadi: adolatli, ochiq muloqotga tayyor rahbarlar ishlayotgan jamoalarda o'qituvchilar tashabbus ko'rsatish darajasi 35% ga oshadi, bu esa umumiy ta'lim sifatining barqaror o'sishiga olib keladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, TALIS ta'lim jarayonini baholashda faqat o'qituvchining qobiliyatiga emas, balki unga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, psixologik va tashkiliy omillarga e'tibor qaratadi. Bu esa ta'lim sifati qanday sharoitda oshishini aniq ko'rsatib beradi.

Xulosa. Yig'ilgan ilmiy manbalar va kuzatuvlar shuni anglatadiki, ta'lim jarayonida o'qituvchining roli nafaqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki u butun o'quv muhitining markazida turadi. O'qituvchining ruhiy holati, motivatsiyasi, kasbiy qo'llab-quvvatlanishi va hamkorlikka ega bo'lishi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladigan asosiy omillar qatoriga kiradi. Shu sababli o'qituvchini faqat metodlar orqali baholash yetarli emas; uni inson sifatida tushunish, mehnatini qadrlash va rivoji uchun qulay sharoit yaratish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi zarur.

Tadqiqot natijalari o'qituvchi qanday muhitda ishlasa, darsning sifati ham shunga mos shakllanishini ko'rsatadi. Jamoaviy fikrlash, ochiq muloqot, rahbarlikning qo'llab-quvvatlovchi uslubi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati bularning barchasi pedagog mehnatini yengillashtirib, uning dars jarayonidagi ishtiyoqini oshiradi. O'zini qadrlangan va eshitilgan deb his qilgan o'qituvchi o'quvchilarga ham mehr bilan, ishonch bilan yondashadi. Natijada o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, darsga bo'lgan qiziqishi va ta'limning umumiy sifati sezilarli o'sadi.

Umuman olganda, ta'lim tizimini kuchaytirishning eng samarali yo'li avvalo o'qituvchini qo'llab-quvvatlashdan boshlanadi. Uning ehtiyojlarini inobatga olish, kasbiy rivoji uchun imkon yaratish va ta'lim jarayonini insoniylik tamoyillariga asoslash sifatli natijalarga olib kelishi tabiiydir. TALISga tayangan holda aytish mumkinki, har qanday islohotning asosiy nuqtasi o'qituvchining o'zi bo'lib, unga yaratilgan sharoit qanchalik qulay bo'lsa, ta'lim natijalari ham shunchalik barqaror va yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. PF-134-son, 2022-yil 11-may.

2. X.Qarshiboyeva TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning ahamiyati. 2025. - 122-124-betlar.
3. A.Sh. Husanova Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida o'qish savodxonligini oshirish. 2024. 28-31- betlar.
4. Veletić J., Mejía-Rodríguez A., Olsen R. V. A systematic literature review of TALIS secondary research: Trends and future directions. Review of Education, 2024. 26-28-betlar.
5. D.R. Husanov Teaching Quality Management Based on the TALIS International Assessment Program. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 2022. - 97-102-betlar.
6. Ralph M. C. Better together: evidence from TALIS 2018 that professional networks and business engagement support US teacher improvement. Cogent Education, 2025. 8-11-betlar.

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

1-jild 1-son 2025-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).